

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SON SO'Z TURKUMINI O'RGATISHDA  
TADRIJIYLIK VA IZCHILLIK**

**Atamurodova Qunduzoy Abdug'aniyevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

qatamurotova@gmail.com

**Sattorova Fazilat**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi III bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga son so'z turkumini o'rgatishda izchillik, turli xil mashq turlari, to'g'ri talaffuz qilish va imloviy xatolarga yo'l qoymasliklarini o'rgatish yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** Son so'z turkumi, boshlang'ich sinflar, sanoq son, tartib son, sintaktik vazifa.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga son mavzusi 3 yo'nalishda tushuntiriladi. Ular quyidagilar:

1. Sonlarni talaffuzi va ma'nosi ustida ishlash.
2. Sonning grammatik shakllari ustida ishlash.
3. Sonlarning imlosi haqida ishlash.

Son boshlang'ich sinflarda quyidagi izchillikda o'rganiladi:

—1-sinfdan faqat amaliy o'tiladi;

—2-sinfdan nechta?, qancha? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs va narsaning sanog'ini, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lib, shaxs va narsaning tartibini bildirishi;

—3-sinfdan Son - so'z turkumi tushunchasi kiritiladi. O'quvchilarda son predmetning miqdorini bildirishini otga bog'lanib kelishi yordamida aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi. Bularni o'rganishda sonning leksik xususiyatlariga asoslaniladi. Sonning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi.

—4-sinfdan sanoq va tartib sonlar, tartib sonlarning harf, rim va arab raqamlari bilan yozilishi, qo'sh undoshli sonlarning, grammatik shakllangan sonlarning (ikkov, o'ntacha, beshtadan) imlosi, sonlarning gramm, kilogramm, metr, litr, so'm, tiyin so'zlari bilan qo'llanishi va shu so'z bilan bitta so'roqqa javob bo'lishi o'rganiladi. O'quvchilarning sonlarni otga bog'lanishi, so'roqlar yordamida sonni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirish ko'nikmalari o'stiriladi.

Son" ustida ishlash dastur talabiga ko'ra 1-sinfdan boshlansa ham, uni o'rganish jarayoni, metodik jihatdan 4 bosqichga bo'linadi. „Son" boshlang'ich ta'limda elementar nazariy tushunchalar asosida amaliy o'rganiladi.

1-bosqichni to'liq ma'noda sonni amaliy o'rganish bosqichi deb nomlaymiz. Chunki bu bosqichda umuman nazariyasiz son ustida ishlanadi va bu 1-sinfning savod o'rgatish va 1-sinfning 2-yarmiga to'g'ri keladi. Bu bosqich sonni o'rganuvchi keyingi bosqichlarga zamin tayyorlaydi. Savod o'rgatish davrida o'qituvchi o'quvchilarga turli xil kundalik ishlar, rasmlar, predmetlar, bugungi kun haqida suhbat, savol-javob uyushtiradi. Masalan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin. Bugun sana nechi? Bugun darsga necha kishi kelmadi? Matnda nechta gap bor? kabi savollar yordamida amaliy o'rgatiladi.

2-bosqich 2-sinfga to'g'ri keladi. Bu bosqichda asosan ikki vazifa bajariladi:

1. Nechta?, qancha? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs va narsalarning sanog'ini: nechanchi? so'rog'iga javob bo'lib, shaxs va narsalar tartibini bildirgan so'zlar haqida elementar nazariy tushunchani shakllantirish;

2. Sonlarga so'roq bera olish, ularning nimani bildirishini ayta olish, ulardan foydalanib o'z fikrini aniq ifodalash, mazmunga mos holda sonlarni o'rinli qo'llash ko'nikmasini o'stirish, lug'atlardan foydalana olish qobiliyatini shakllantirish.

3-bosqich 3-sinfga to'g'ri keladi. Bu bosqichda „Son“ tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sonlar bilan boyitib borish ko'nikmalari shakllanadi. Bu bosqichda og'zaki va yozma shakldagi yozma ishlar, diktantlar olinadi va o'quvchilarning sonlarni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalari shakllanadi.

4-bosqichda eng asosiy e'tibor sonlarning imlosiga qaratiladi. Sonning 3-bosqichda o'rganilgan grammatik xususiyatlari bu bosqichda asosan mustahkamlanadi. O'quvchilarga:

- ★ sonlarning har bir qismini alohida yozish (yetti, yigirma yetti),
- ★ chiziqchasiz va chiziqcha bilan yozish (7 o'quvchi, 7-sinf, X ses- siya, 8-dekabr, 1992-yil),
- ★ qo'shimcha qo'shilgandan keyin son o'zagidagi o'zgarishlarni yozuvda to'g'ri ifodalash (ikki+ov-ikkov, yetti+ov yettov, ikki+ala-ikkala),
- ★ qo'sh undoshli sonlarning yozilishi (ikki, yetti, sakkiz, o'ttiz),
- ★ sonlarning gramm, kilogramm, metr, litr so'zlari bilan qo'llanishi yangi bilim sifatida o'rgatiladi.

Son mavzusida o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mavjud.

Bilim:

1. Son, sanoq son, tartib son haqida;
2. Necha? nechanchi? qancha? so'roqlari;
3. Ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida kelishi;
4. Ohang yordamida bog'lanishi;
5. Shakldosh so'zlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Ko'nikma:

1. Sonning sanoq va tartib ma'nolarini farqlash;
2. Songa necha? nechta? qancha? nechanchi? so'roqlarini bera olishi;

3. Gap va matn tarkibidan sonni soʻroqlari orqali aniqlay olishi;
4. Sonlarni koʻp, oz, ancha, kam kabi soʻzlardan farqlay olishi;
5. Sonni bogʻlanib kelgan soʻz orqali unga soʻroq bera olishi. Sonlarning otga bogʻlanib kelishini bilishi;
6. Sonning gapda ikkinchi darajali boʻlak vazifasida kelishini, uni toʻlqinli chiziq orqali belgilay olishi;
7. Sonlarni toʻgʻri talaffuz qila olishi;
8. Sonlardan ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri va oʻrinli foydalana olishi;
9. Sonlarga shakldosh soʻz topa olishi.

Malaka:

1. Sanoq va tartib sonlarning maʼnosini izohlay olishi;
2. Sonlarning talaffuzi va yozilishini izohlay olishi;
3. Imlo lugʻatidan foydalana olishi;
4. Sonlarni harfiy shaklda arab va rim raqamlarida imloviy toʻgʻri yozishni bilishi;
5. Sanoq sonlarni tartib sonlarga, tartib sonlarni sanoq sonlarga aylantira olishi;
6. Berilgan son ishtirokida birikma va gap tuz olishi;
7. Oʻqiganlarni, kuzatganlarni va rasm asosida sonlarni qatnashtirib kichik hikoyacha tuza olishi;
8. Matndagi sonlarni boshqa miqdor bildiruvchi soʻzlar bilan almashtira bilishi.

Son soʻz turkumini oʻrgatishda quyidagi mashq turlaridan foydalanishimiz mumkin.

Mashqlardan namunalar:

1-mashq

Nuqtalar oʻrniga mos sonlarni topib yozing.

1. ... yigitga ... hunar oz.
2. ... mayizni ... kishi boʻlib yegan.
3. Sanamay ... dema.
4. ... oʻlchab, ... kes.
5. Bilagi bor ... yiqar, bilimi bor ... .

2-mashq

Sanoq va tartib sonlari qatnashgan kichik matn tuzing.

Men to'rtinchi sinfda o'qiyman. Sinfimizda yigirma to'rtta o'quvchi bor. Ustozimiz beshinchi oktabrda tog'ga olib bordilar. Tog'da besh, olti xil gullardan terdik. Uchta dugonam bilan maza qildik. Beshinchi oktabr biz uchun juda esda qolarli kun bo'ldi.

3-mashq

Maqolda berilgan sonlarni so'z bilan yozing.

1. 1 kun tuz ichgan joyingga 40 kun salom ber.
2. Qirib yesang 40 kunga yetar, O'yib yesang 10 kunga yetar.
3. 1000marta eshitgandan 1marta ko'rgan yaxshi.
4. 5ni beli bo'lguncha, 6ni oyog'i bo'l.
5. O'g'ri bitta, gumon 1000ta.

4-mashq

Berilgan tartib sonlarni so'z bilan yozing.

1. 6-oktabr
2. 16-iyul
3. 2004-yil
4. 5-guruh

5-mashq

Qo'sh undoshli sonlarni tagiga chizing.

1. To'rt ming yetmish sakkiz.
2. Yetti yuzi ellik ikki.
3. Bir million ellik yetti.
4. To'qqiz ming besh yuzi ellik to'qqiz.
5. To'rt ming sakkiz yuzi o'ttiz uch.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S. Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI 5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun darslik Toshkent 2019
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharafjon Sariyev Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent "Noshir" nashriyoti 2009.